



**FUQAROLAR VA DAVLAT O'RTASIDAGI HUQUQ VA
MAJBURIYATLARNING AMALGA OSHIRILISHINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA KAFOLATLARI
ОСОБЕННОСТИ И ГАРАНТИИ РЕАЛИЗАЦИИ ПРАВ И ОБЯЗАННОСТЕЙ
МЕЖДУ ГРАЖДАНАМИ И ГОСУДАРСТВОМ
FEATURES AND GUARANTEES OF THE IMPLEMENTATION OF RIGHTS
AND OBLIGATIONS BETWEEN CITIZENS AND THE STATE**

Andijon davlat universiteti

Yo'ldoshev Husniddin

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishining o'ziga xos xususiyatlari va kafolatlari tahlil qilinadi. Mazkur munosabatlarning shakllanishi, huquqiy asoslari, ularning fuqarolarning hayotidagi o'rni va davlat tomonidan kafolatlanishi madaniy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatib beriladi. Maqola fuqarolik jamiyatini va davlat boshqaruvini yanada samarali tashkil etishda huquq va majburiyatlarning muhimligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Fuqarolik huquqi, majburiyatlar, konstitutsiyaviy kafolatlar, davlat, huquqiy mexanizm, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются особенности и гарантии реализации прав и обязанностей между гражданами и государством. Указывается, что формирование, правовые основы этих отношений, их роль в жизни граждан и гарантии со стороны государства тесно связаны с культурными, политическими и социальными процессами. В статье подчеркивается важность прав и обязанностей в более эффективной организации гражданского общества и государственного управления.*



Ключевые слова: гражданское право, обязанности, конституционные гарантии, государство, правовой механизм, верховенство закона, правовое государство.

Annotation: *this article analyzes the peculiarities and guarantees of the implementation of rights and obligations between citizens and the state. It is shown that the formation, legal basis of these relations, their place in the life of citizens and their guarantee by the state are closely related to cultural, political and social processes. The article emphasizes the importance of rights and obligations in the more effective organization of civil society and public administration.*

Keywords: *civil law, obligations, constitutional guarantees, state, legal mechanism, rule of law, legal state.*

KIRISH

Jamiyatda fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarning o'z huquqlari va majburiyatlarini bilishi, davlatning esa ularni amalga oshirish uchun kafolatlar berishi jamiyatda tenglik va adolatning ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun huquq va majburiyatlarning o'zaro bog'liqligi, ularning amalga oshirilishining xususiyatlari va kafolatlari haqida chuqur tushuncha zarurdir. "Fuqaroga xizmat qilish – bu davlatning eng oliy burchidir." Ushbu yondashuv bugungi O'zbekistonda nafaqat siyosiy shior, balki konstitutsiyaviy majburiyat sifatida o'z aksini topmoqda. 2023-yilda butun xalq ishtirokida o'tkazilgan referendum asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu Konstitutsiya – nafaqat qonunlar majmuasi, balki fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi ijtimoiy bitim hamdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy falsafasi – inson huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini yuksak qadrlashdan iborat. Endi davlat emas, inson markazda turadi. Ammo qonunda belgilangan tamoyillar hayotda qanday ishlamoqda? Davlat o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajaryaptimi? Fuqarolar o'z huquqlarini biladimi? Fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar har qanday demokratik jamiyatning negizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lib, ularning bajarilishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, fuqarolar o'z huquqlaridan



to'laqonli foydalanishi, shuningdek, o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi muhim hisoblanadi¹. Mazkur maqolada huquq va majburiyatlarning qanday amalga oshirilishi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va kafolatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Jamiyat barqarorligi va inson huquqlarining hurmati – davlat va fuqarolar munosabatining eng asosiy mezoni. Har bir davlat o'z yozuvi – Konstitutsiyasi orqali fuqarolar bilan o'rnatiladigan huquq va majburiyatlar tizimini belgilaydi. 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham shunday muqaddas huquqiy qomusdir. Ammo Konstitutsiyada bayon qilingan ideal huquqiy tamoyillar amaliyatda har doim to'liq amalga oshadimi? Fuqarolarning huquqlari davlat tomonidan qanday kafolatlanadi? Prezident va davlat rahbarlari bu yo'lda qanday mas'uliyat oladi? Yuqorida keltirilgan norma va Prezident nutqlari fuqarolar-davlat o'rtasidagi huquq-majburiyat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy omillardir. Biroq ularning amaliy ijrosi turlicha omillar ta'sirida murakkablashadi. Norma va realitet o'rtasidagi tafovut Konstitutsiyada bayon qilingan huquqiy tamoyillar ulkan huquqiy-moral majburiyatlarni anglatadi. Lekin ular fuqarolarga bevosita ta'sir etmaydi muvofiq qonunlar va idoraviy chora-tadbirlar bo'lishi kerak. Agar davlat idoralari yondashuvi eski qoidalarga asoslangan bo'lsa, forma jihatidan "huquq kafolatlari" bo'lishiga qaramay, amalda cheklangan bo'ladi. Fuqarolar faolligi, huquqiylashtirilgan jamiyat institutlari - nodavlat tashkilotlar, ombudsman institutlari, jamoatchilik nazorati – huquq-kafolatlar samaradorligini oshiradi. Konstitutsiyada inson huquqlarini himoya qilishda milliy institutlarning roli mustahkamlangan. Kafolatlar tizimi va ichki huquqiy mexanizmlar Konstitutsiyada kafolatlar - davlatning majburiyati sifatida ko'plab moddalarda bayon etilgan². Masalan, davlat "shart-sharoit yaratish" majburiyatiga ega. Qonun ustuvorligi, sudga murojaat qilish kafolati, sud mustaqilligi bularning barchasi huquqiy kafolat tizimining tugallangan qismi bo'lishi kerak.

¹ Normurodov A. *Huquqiy madaniyat va fuqarolik faolligi*. – Toshkent, 2020.

² Normurodov A. *Huquqiy madaniyat va fuqarolik faolligi*. – Toshkent, 2020.



MUHOKAMA

Fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquq va majburiyatlar ikki tomonlama javobgarlik tizimini tashkil qiladi. Har bir fuqaro davlat konstitutsiyasi va qonunlari asosida o'z huquqlaridan foydalanadi hamda majburiyatlarini bajaradi. Shu bilan birga davlat fuqarolar oldida huquqiy kafolatlar berib, ularning qonun oldidagi tengligini ta'minlaydi. Huquqiy asoslar va kafolatlar bo'lmasa, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ijtimoiy nizolar kuchayadi.

Huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

- Huquqiy me'yorlarning aniq belgilanganligi va qonuniyligi;
- Huquq va majburiyatlarning sinxronligi, ya'ni biri boshqasiga muvofiq kelishi;
- Fuqarolarning faolligi va davlat organlarining mas'uliyati;
- Hukumatning fuqarolarining huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan barcha choralarni ko'rishi;
- Fuqarolarning davlat siyosatiga va huquqiy jarayonlarga to'liq jalb etilishi³.

Kafolatlar esa davlat tomonidan berilgan himoya, nazorat, adolatli sudlov va boshqa institusional vositalar orqali ta'minlanadi. Ularning mavjudligi huquq va majburiyatlarning samarali amalga oshirilishini kafolatlaydi hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlar huquqiy asosda tartibga solinmoqda. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda Konstitutsiyaning 18-moddasidan 47-moddasigacha bo'lgan normalar alohida ahamiyatga ega. Misol uchun, har bir fuqaroning qonun oldida tengligi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, so'z va fikr erkinligi, saylov huquqlari bular barchasi davlat

³ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.



tomonidan muhofaza qilinadi.

Ammo bu huquqlarning amalda to'laqonli ta'minlanishi uchun fuqarolarning o'z majburiyatlarini ham bajara olishlari zarur. Shu bilan birga, davlat ham o'z funksiyalarini halol, ochiq va samarali bajarishi kerak. Shuningdek, fuqarolarning huquqiy bilim darajasini oshirish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini oshkora yuritish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish orqali bu jarayonni yanada takomillashtirish mumkin.

XULOSA

Fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular qonuniylik, tenglik, demokratik ishtirok va majburiyatlarni bajarishga asoslangan. Ushbu munosabatlarni ta'minlash uchun davlat tomonidan samarali huquqiy kafolatlarning berilishi zarur. Faol fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligi tizimi esa jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli huquq va majburiyatlarni amalga oshirish xususiyatlari va kafolatlarini chuqur o'rganish va rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Davlat va fuqaro o'rtasidagi huquqiy munosabat – bu bir tomonlama talablar tizimi emas. Bu o'zaro mas'uliyat, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan ijtimoiy shartnomadir. Yangi Konstitutsiyada bu prinsiplar huquqiy asosda mustahkamlangan. Ammo huquq bu faqat matn emas, balki amal. Prezident so'zlari, qonunlar ruhi, fuqarolar faolligi – ularning barchasi bir-birini to'ldirib, haqiqatda kuchli fuqarolik jamiyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil yangi tahriri).
<https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Ombudsman faoliyati haqida Qonun –
<https://lex.uz/docs/-7223219>



4. Normurodov A. *Huquqiy madaniyat va fuqarolik faolligi*. – Toshkent, 2020.
5. Qayumov, D. (2021). *Huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati*. Toshkent.

